

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “QORONG’I TUN ARO DAYDISANG GUMROH...” SHE’RI TAHLILI

Nurmaxmatova Furuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg XX asr o‘zbek adabiyotining gullab-yashnashiga, san’at sifatida yangi bosqichga chiqib, butun dunyo adabiyot ixloslari tomonidan olqishlanisha o‘zining benazr hissasini qo‘shgan ardoqli ijodkor sanaladi. Mana shoir vafotiga ancha yillar bo‘lgan bo‘lsa hamki, uning muxlislari u tomonidan yozilgan asarlarni qo‘ldan qo‘ymay mutolaa qilishdan, uning shaxsiga ijodiyot, umr yo‘liga taqsinlar aytishdan also to‘xtamayaptilar. Shoir hayoti va ijodi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, u bitgan asarlar keng kitobxonlar ommasini tomonidan qiziqish bilan kutib olinishiga xizmat qiladigan omillardandir. Faynberg yoshlik chog‘laridanoq adabiyotga chuqur mehr qo‘ygan, turli shaxsiy va ijtimoiy sinovlardan o‘tgan va ayni shu tajribalarni falsafiy ruhda lirikasiga jo qilgan. Faynberg o‘z she‘riyatida insonning ichki olovi, ruhiy kechinmalari va hayotiy qarorlarini markaziy mavzu sifatida olib chiqadi. U inson qalbida sodir bo‘layotgan tuyg‘ular ziddiyatini, o‘tmish, xotira, umid va orzularni ajoyib poetik timsollar vositasida ochib beradi. Shu nuqtai nazardan uning lirikasida uchraydigan olov, gulxan va ichki harorat bir tarafdin shoir boshidan o‘tgan mashaqqatlar-u sinovlarni ifodalasa, boshqa tarafdin ba‘zi o‘rinlarda inson tabiatigagina xos bo‘lgan umid, ishonch, sevgi va orzularni bildiradi. Hayotiy tajribalari Faynbergga inson ruhining murakkabliklarini payqash va tushuntirib berish imkonini beradi. Shoirning bu qobilyati uning asarlarining nafaqat estetik, balki falsafiy jihatdan ham chuqur va sifatli ekanligini ta‘minlaydi. Shuning uchun Faynberg she‘riyatida qahramonlarning ichki olovi va ruhiy harorati ularning hayotiy tajribasi bilan bevosita bog‘liq. Shoir lirikasi, shu tariqa, inson qalbini, orzu-umidlarini, hayotiy tajribalarini

yoritib berish orqali o'quvchini ruhiy kechinmalarni anglashga undaydi. Bu yo'nalishda shoir yuzlab she'rlar bitgan. Bu she'rlarning har qaysisi oddiy ramzlar, kundalik yumushlar, obyektlar vositasida ramziylik zanjirini hosil qilib, o'quvchi ko'z o'ngida kinodek gavdalanadigan hayotiy dars, butun bir yirik falsafiy asarga aylanadi. Aleksandr faynberg qalamiga mansub "Qorong'I tun aro daydisang gumroh..." misralari bilan boshlanuvchi she'ri ham umid, ishonch, ruhiy tashanchni go'zal tarzda tushuntirib bergan durdona asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqola aynan mana shu she'r badiiy va g'oyaviy tahliliga bag'ishlanadi.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinberg is considered a respected artist who made an invaluable contribution to the flourishing of 20th-century Uzbek literature, its rise to a new level as an art form, and its recognition by literature lovers around the world. Although many years have passed since the poet's death, his fans still read his works without ceasing, and praise his personality, creativity, and life path. The inextricable connection between the poet's life and work is one of the factors that serve to ensure that his works are met with interest by a wide audience. Feinberg has had a deep love for literature since his youth, has gone through various personal and social trials, and has embodied these experiences in his lyrics in a philosophical spirit. In his poetry, Feinberg brings out the inner fire of man, spiritual experiences, and life decisions as the central theme. He is a human being. He reveals the conflict of feelings occurring in his soul, the past, memories, hopes and dreams through wonderful poetic images. From this perspective, the fire, bonfire and inner warmth found in his lyrics, on the one hand, express the hardships and trials that the poet has gone through, and on the other hand, in some places, they express hope, faith, love and dreams that are inherent only to human nature. His life experiences allow Feinberg to notice and explain the complexities of the human soul. This ability of the poet ensures the depth and quality of his works not only aesthetically, but also philosophically. Therefore, in Feinberg's poetry, the inner fire and spiritual warmth of the heroes are directly related to their life experience. The poet's lyrics, thus, illuminate the human soul, dreams and hopes, and life experiences, encouraging the reader to understand spiritual experiences. In this direction, the poet has written hundreds

of poems Each of these poems creates a chain of symbolism through simple symbols, everyday tasks, and objects, transforming the reader into a life lesson, a whole large philosophical work that is embodied like a movie before their eyes. Alexander Feinberg's poem, which begins with the lines "If you say in the middle of the dark night, you are mistaken...", is also considered one of the masterpieces that beautifully explains hope, faith, and spiritual thirst. This article is devoted to the artistic and ideological analysis of this poem.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг считается уважаемым художником, внесшим неоценимый вклад в расцвет узбекской литературы XX века, её возвышение как вида искусства и признание ценителями литературы во всем мире. Хотя со дня смерти поэта прошло много лет, его поклонники до сих пор неустанно читают его произведения, восхваляя его личность, творчество и жизненный путь. Неразрывная связь между жизнью и творчеством поэта является одним из факторов, обеспечивающих интерес к его произведениям широкой аудитории. Файнберг с юности питал глубокую любовь к литературе, пережил различные личные и социальные испытания и воплотил этот опыт в своей лирике в философском духе. В своей поэзии Файнберг раскрывает внутренний огонь человека, духовные переживания и жизненные решения как центральную тему. Он – человек, он через прекрасные поэтические образы показывает конфликт чувств, происходящих в его душе, прошлое, воспоминания, надежды и мечты. С этой точки зрения, огонь, костер и внутреннее тепло, присутствующие в его лирике, с одной стороны, выражают трудности и испытания, через которые прошел поэт, а с другой стороны, в некоторых местах — надежду, веру, любовь и мечты, присущие только человеческой природе. Жизненный опыт позволяет Файнбергу замечать и объяснять сложности человеческой души. Эта способность поэта обеспечивает глубину и качество его произведений не только в эстетическом, но и в философском плане. Поэтому в поэзии Файнберга внутренний огонь и духовное тепло героев напрямую связаны с их жизненным опытом. Таким образом, лирика поэта освещает человеческую душу, мечты и надежды, а также жизненный опыт, побуждая читателя

к пониманию духовных переживаний. В этом направлении поэт написал сотни стихотворений. Каждое из этих стихотворений создает цепочку символов через простые символы, повседневные дела и предметы, превращая читателя в жизненный урок, в целое большое философское произведение, которое предстает перед его глазами подобно фильму. Стихотворение Александра Файнберга, начинающееся строками «Если скажешь посреди темной ночи, то ошибешься...», также считается одним из шедевров, прекрасно раскрывающих темы надежды, веры и духовной жажды. Данная статья посвящена художественно-идеологическому анализу этого стихотворения.

Kalit soʻzlar: Faynberg, ichki olov, ruhiy ogʻriq, qalb kechinmalari, muhabbat, umid, iroda, yolgʻizlik, ichki kurash, sogʻinch, iztirob, jarohat, gulxan, gugurt, metafora, obraz, ramz, hayotiy sinov, badiiy tasvir, inson ruhiyati, ichki dramatism, mehr-muhabbat, hayotiy iroda, iztirob va umid, qalb olovi, ruhiy tiklanish.

Keywords: Feinberg, inner fire, spiritual pain, heartache, love, hope, will, loneliness, inner struggle, longing, suffering, injury, bonfire, match, metaphor, image, symbol, life test, artistic image, human psyche, inner drama, love, vital will, suffering and hope, fire of the heart, spiritual revival.

Ключевые слова: Файнберг, внутренний огонь, духовная боль, сердечная боль, любовь, надежда, воля, одиночество, внутренняя борьба, тоска, страдание, травма, костер, спичка, метафора, образ, символ, испытание жизнью, художественный образ, человеческая психика, внутренняя драма, любовь, жизненная воля, страдание и надежда, огонь сердца, духовное возрождение.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Qorongʻi tun aro daydisang gumroh...” misralari bilan boshlanuvchi sheʼri insonga juda koʻp va kuchli maʼnaviy ozuqa beruvchi, hayotiy dars. Uning asosiy gʻoyasi shundan iboratki, inson hayot yoʻlida qanday qiyinchiliklar, murakkabliklar, sinovlarga duch kelmasin umidsizlikka tushib qolmasligi va

boshqalarni ham xuddi shunday yo'l tutishga ruhlantirishi, ularga umid olovi, mashali bo'lishlari lozim.

She'rda qorong'i tun, izg'irin shamol, biyobon kabi metaforik tasvirlar inson umr yo'lida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar ifodasidir. "Qorong'i tun aro daydisang gumroh" insonning adashgan, yo'lini topolmayotgan holati sahnasini ko'rsatib beradi. Ba'zida hayotda hamma narsa zulmatdek tuyuladi. Ammo shoir, bu zulmat abadiy davom etmaydi, olisda baribir miltirab turgan olov bor deydi. Bu olov-umid, ishonch, orzu ramzi. She'rning ilk misralarida ko'rganimiz "gumroh" so'zi shunchaki yo'ldan adashgan yo'lovchini emas, yo'lni qayta topishga bo'lgan umidini yo'qotgan insonning tasviri. "Nobop ob-havo" esa tashqi muammolarni bildiradi. Vaqti-vaqti bilan insonning muammolari o'zida, ichki kechinmalaridan emas atrof-muhiti tufayli kelib chiqadi. Shoir mana shunday vaziyatni aql bovar qilmas darajada tabiiy ko'rsatadi: qiyinchiliklar hayotning bir qismi. "Faqat zulmat bo'lmas bir umr hamroh" misrasi orqali shoir o'quvchiga dalda berishga harakat qiladi. U insonni tushkunlikka emas, sabrga chorlaydi. Zulmat ortida shubhasiz ro'shnolik bo'ladi. "Olisda miltirab yongan olov" satri nafat umid ramzi, balki undagi olov oddiy yoru'lik emas, ma'naviy tayanch timsoli hamdir. "Miltillab" so'ziga e'tibor qaratsak, bu umid uncha katta emas, lekin baribir mavjud ekanligini, shu nozik, kichik nur orqali butun hayot nurafshon bo'lishi mumkin ekanligini anglaymiz. Eng muhimi inson mana shu umidni ko'ra bilishi kerak.

Qorong'i tun aro daydisang gumroh,

Nobop ob-havodan ranjima zinhor.

Faqat zulmat bo'lmas bir umr hamroh,

Olisda miltillab yongan olov bor.

Keyingi badda shoir olovni "mehr va harorat bergay beminnat" deya ta'riflaydi. Bu beminnat mehr va harorat inson yo'lini topolmay ozgina tasalli, umid kutgani paytida qalbida paydo bo'lgan kichik umid zarrasi tomonidan beriladi. Nega endi bu mehr beminnat? Chunki insonlar o'zlari chin ko'ngildan bergan yordamlarini ham, aytgan

so'zlarini ham minnat qilishga moyillar. Faqat inson o'zi ichidan nimadir topib, o'zini o'zi umidsizlik botqog'idan chiqarsagina bu ta'na toshlariga qolmasligi mumkin. Lekin shoir insonlar o'rtasidagi munosabatni ulug'laydi. Inson aql bilan ish ko'rganda, o'zgalardan shirin so'zlarini ayamaganlarida boshqalar quvonchini, ilhomini ko'rib qanchalar ruhlanadilar. Ayniqsa ularning bir og'iz shirin so'zi ko'chada mehrga zor, tasalliga muhtoj odamga qanchalar ijobiy ta'sir qiladiya. Keyingi satrlarda "Umid va ishonching qaytadi hali" deyilishi juda muhim ruhiy xulosadir. Inson ba'zan umidni yo'qotishi mumkin, ammo barbar u bir kun tiklanadi. Demak, tushkunlik bir umrga cho'ziladigan holat emas. "Axir bir umr yuz o'girmas omad" misrasida omad iroda va sabrga bog'lanadi. Omd ham insondan abadiy yuz o'girmaydi, faqat u kulib boqadigan pallani sabr bilan kutish lozim.

Bu olov darbadar yurgan mahaling,

Mehr va harorat bergay beminnat.

Umid va ishonching qaytadi hali,

Axir bir umr yuz o'girmas omad.

She'r o'rtasiga kelib "Olovni o'chirsa izg'irin shamol" misrasiga ko'zimiz tushadi. Yashashni davom etar ekanmiz ming mashaqqatlar bilan topgan umidimiz ham bexos so'nib qolishi mumkin ekan. "Izg'irin shamol" bu o'rinda muammolar, hayot zarbalarini ifodalaydi. Inson yana qorong'ulikda qolib ketadi. Endi nima qilish kerak, bu vaziyatdan qanday chiqishi kerak? Keying misralarda shoir shu savollarga javob beradi: "So'ngi chora erur oddiy bir amal -To'xta-da, gulxanga unna shu zamon." Ya'ni inson endi boshqalardan nur, umid kutib o'tirmasdan shu nurni o'zi qidirishi, uni o'zi harakat qilishi lozim. Bu "oddiy amal"- ichki jasoratni uyg'otish. To'xtab, o'z kuchini yig'ib, o'z qo'li bilan olov yoqishi, ya'ni faol pozitsiyaga o'tishi lozim degani.

Olovni o'chirsa izg'irin shamol,

Yana qorong'ida qolsang nogahon.

So'nggi chora erur oddiy bir amal –

To'xta-da, gulxanga unna shu zamon.

She'ring so'ngi bandidagi "Kaftingda avaylab gugurt cho'pin chaq" misrasi katta ramziy ma'noga ega. Gugurt ko'rinishidan juda kichik narsadek tuyulishi mumkin, biroq u katta gulxanning boshlanishida katta rol o'ynaydi. Bundan kelib chiqadiki, katta o'zgarishlar ham asli kichik o'zgarish va amallardan vujudga kelar ekan. Shoir insonni mayda imkoniyatlarni ham yetarlicha qadrlab ulardan maksimal darajada foydalanishga chaqiradi. Har bir inson qo'lida "gugurt cho'pi", ya'ni uning irodasi, matonati, iste'dodi, harakat qilish qobiliyati bor. "Yo'lsiz biyobonda gulxan yo'q" tasviri undan ham kuchliroq mazmunga ega. Biyobon yolg'izlik, qiyinchilik, umidsizlik timsoli sifatida ishlatilgan. Yo'l yo'q joyda yo'l ochib, nur yo'q joyda nur yaratgan inson kuchli shaxs belgilarini shular orqali namoyon etadi. Shoir inson ichida yashirin shijoat qudratini ulug'laydi. She'ring eng yuksak nuqtasi – "Sen ham birov uchun olovga aylan" misrasidir. Bu yerda g'oya yanada kengayadi. Inson faqat o'zini qutqarish, o'ziga panoh bo'lish bilangina cheklanmasligi, to'xtab qolmasligi kerak. U boshqalarga ham tayanch bo'lishi lozim. Olov bo'lish"- yorug'lik, issiqlik, dalda manbai bo'lish demakdir. Bu misra insonparvarlik g'oyasini ko'tarib chiqadi.

Kaftingda avaylab gugurt cho'pin chaq,

Tamaki tortib, o't yoqishga shaylan.

Yo'lsiz biyobonda gulxan yoq, o't yoq,

Sen ham birov uchun olovga aylan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Faynberg qalamiga mansub bu she'r butun insoniyat, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlod ruhiy va ma'naviy tarbiyasiga eng kerak mavzuni olib chiqqan. Bugungi kunga kelib zamonaviy insonlarimiz millatimizga xos bo'lgan sabr, bir-biridan boxabar bo'lish, bir-biriga dalda bo'lish singari fazilatlarni yo'qotib asta-sekin bormoqda. Ko'pincha hayot qiyinchiliklariga, ilm, ish yo'lida uchrayotgan sinovlarga sabr bilan yondashmay komillik darajasiga yetisholmaydilar. Bu she'r insonni eng ilojsiz hollarda ham hayotga pozitiv nazar bilan qarashga, hayot

mashaqqatlar bilan, usiz yashab bo'lmashligiga, sabr bilan yengilgan sinovlar insonni yanada yuksakroq marralarga olib chiqishiga ishonтиради. Eng muhimi har doim kurashishga tayyor bo'lish, umid bizni tark etganda ham uni yangitdan kashf qilib, boshqalarni ham ruhlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sohili S. She'rlar to'plami. — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021.
2. To'xtasinov A. Lirik qahramon psixologiyasi. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
3. Ruzikulova M. She'riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda uyg'unligi. — “Adabiyot nazariyasi jurnali”, №3, 2022.
4. <https://arm.samdhti.uz/library/download/692>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
6. Aleksandr Faynberg. — T.: Ijod nashr, 2021.